

BERNARD SHOU PYESALARIDA INTERTEKSTUAL ALOQALAR VA MADANIY KONNOTATSIYALAR

Abbasova Nargiza Kabilovna

FarDU katta o'qituvchisi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Juraeva Gulrukh Baxtiyorovna

Farg'ona Davlat Universiteti Magistratura bitiruvchisi

gulrukhjuraeva279@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17411559>

XX asr ingliz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Bernard Shou o'zining ijtimoiy-tanqidiy ruhdagi dramatik asarlari orqali nafaqat dramaturgiya, balki ingliz tili va madaniy tafakkur rivojiga ham ulkan ta'sir ko'rsatgan. Uning pyesalari zamonaviy jamiyatdagi axloqiy, siyosiy va ijtimoiy muammolarni teran tahlil etish, ironik va satirik ruhda ifodalash bilan ajralib turadi. Shou dramaturgiyasida intertekstual aloqalar va madaniy konnotatsiyalar muhim stilistik hamda semantik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Intertekstual aloqa – bu badiiy matnning boshqa matnlar, tarixiy, diniy, falsafiy yoki adabiy manbalar bilan o'zaro muloqoti, matnlararo ishoralar orqali yangi ma'no yaratilishidir. Madaniy konnotatsiya esa so'z yoki obrazning muayyan milliy, tarixiy, yoki ijtimoiy-madaniy kontekstda ortiqcha ma'no va emotsional qiymat kasb etishini bildiradi. Bernard Shou bu ikki hodisani o'z dramatik uslubining asosiy tayanchlaridan biri sifatida ishlatgan.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Shou pyesalaridagi intertekstual ishoralar va madaniy konnotatsiyalar ingliz adabiy tafakkurining modern bosqichini anglashda, shuningdek, adabiy til va milliy ong o'rtasidagi o'zaro aloqani tahlil qilishda muhim ilmiy asos beradi.

Intertekstual aloqalarning mohiyati va Shou ijodidagi ko'rinishlari. Intertekstual aloqalar Bernard Shou dramaturgiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. U o'z pyesalarida qadimgi yunon tragediyalaridan tortib, Injil matnlariga, Shakespir, Milton, va Ibsen asarlarigacha bo'lgan ko'plab manbalarga murojaat qiladi.

Masalan, *“Man and Superman”* pyesasida Shou *“Don Juan”* obrazini qayta talqin qilib, Servantes va Molière an'alarini modern ijtimoiy kontekstda davom ettiradi. *“Don Juan in Hell”* sahnasida falsafiy bahslar orqali u ekzistensial g'oyalarni ilgari suradi, shu bilan birga, diniy matnlardagi *“gunoh”*, *“jazo”* va *“najot”* kabi konseptlarni yangicha talqin etadi.

Shuningdek, *“Saint Joan”* pyesasida Shou tarixiy manbalarga, xususan, Orlean qahramoni Janna d'Arkning sud jarayoniga oid hujjatlarga intertekstual

murojaat qiladi. Ammo yozuvchi bu tarixiy syujetni diniy emas, balki insonparvarlik va erkin tafakkur prizmasidan ko'rsatadi. Bu yondashuv orqali Shou o'rta asrlar ruhoniylari va zamonaviy siyosiy institutlar o'rtasida kinoyaviy parallel yaratadi.

Intertekstual ishoralar ko'pincha Shou pyesalarida kinoya va parodiya shaklida ifodalanadi. Masalan, *"Pygmalion"* asarida u qadimgi yunon afsonasi – Pygmalion va Galateya hikoyasini ijtimoiy sinf va til masalasi bilan bog'lab, zamonaviy Britaniya jamiyatining sinfiy stereotiplarini tanqid qiladi. Bu orqali u mifologik obrazlarni zamonaviy ijtimoiy muammolar bilan uzviy bog'laydi.

Madaniy konnotatsiyalar va ularning uslubiy ahamiyati. Bernard Shou pyesalaridagi madaniy konnotatsiyalar asosan lingvistik, madaniy, va sotsiolingvistik qatlamlarda namoyon bo'ladi. U jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, milliy g'urur, va ingliz identiteti bilan bog'liq ma'nolarni so'z tanlash va til o'yini orqali ifodalaydi.

Masalan, *"Pygmalion"* pyesasidagi Eliza Doolittle obrazida fonetik farqlar ijtimoiy mavqega tenglashtiriladi. *"Proper English"* tushunchasi bu yerda nafaqat lingvistik, balki madaniy konnotatsiyaga ega bo'lib, u jamiyatdagi tabaqalanish, madaniy ustunlik va ijtimoiy kamsitish ramziga aylanadi.

"Arms and the Man" asarida Shou romantik urush g'oyalari qarshi chiqib, "qahramonlik" tushunchasini ironik konnotatsiyada qo'llaydi. Bu orqali u milliy-madaniy stereotiplarni buzadi va insoniy qadriyatlarini ustun qo'yadi.

Madaniy konnotatsiyalar Shou ijodida shunchaki fon emas, balki ma'no yaratuvchi markaziy omildir. Yozuvchi tilning madaniy qatlamini ijtimoiy tanqid vositasiga aylantiradi. Natijada har bir personajning tili, dialekti, yoki leksik tanlovi o'zining ijtimoiy-madaniy identitetini aks ettiradi.

Intertekstual va konnotativ qatlamlarning o'zaro uyg'unligi. Shou pyesalarida intertekstual ishoralar va madaniy konnotatsiyalar ko'pincha o'zaro kesishadi. Masalan, *"Man and Superman"* asaridagi "Don Juan" syujeti orqali yozuvchi qadimiy mifologiyani zamonaviy falsafiy muhokamaga aylantiradi, "superman" g'oyasi orqali esa Nyitshe falsafasiga intertekstual ishora qiladi. Shu bilan birga, "superman" tushunchasi ingliz jamiyatida ijtimoiy elitizmni bildiruvchi madaniy konnotatsiyani ham o'z ichiga oladi.

Bu ikki qatlamning uyg'unligi Shou dramaturgiyasiga ko'p ma'nolilik va semantik chuqurlik beradi. O'quvchi yoki tomoshabin har bir pyesani nafaqat dramatik asar sifatida, balki madaniyatlararo muloqot maydoni sifatida qabul qiladi.

Bernard Shou dramaturgiyasida intertekstual aloqalar va madaniy konnotatsiyalar muhim lingvopoetik rol o'ynaydi. Intertekstual ishoralar orqali u o'tmish va zamonaviylik o'rtasida g'oyaviy ko'priq quradi, madaniy konnotatsiyalar esa ijtimoiy muammolarni chuqurroq ochib beradi. Shou uchun til – bu nafaqat ifoda vositasi, balki jamiyatni tahlil qilish, tanqid qilish va yangilash qurolidir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Shou intertekstual va konnotativ uslublar yordamida ingliz dramaturgiyasini yangicha g'oyaviy va lingvistik bosqichga olib chiqqan. Uning asarlarida madaniyat, til va shaxs o'rtasidagi o'zaro ta'sir o'zining eng yuqori badiiy darajasiga yetgan. Shuning uchun Shou pyesalarining tahlili zamonaviy lingvopoetik va madaniyatshunoslik tadqiqotlari uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Shaw, Bernard. Pygmalion. London: Penguin Classics, 2003.
- 2.Shaw, Bernard. Man and Superman. London: Penguin Books, 2001.
- 3.Shaw, Bernard. Saint Joan. London: Penguin, 2004.
- 4.Kristeva, J. Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. Columbia University Press, 1980.
- 5.Bakhtin, M. The Dialogic Imagination. University of Texas Press, 1981.
- 6.Fairclough, N. Language and Power. Longman, 1989.
- 7.Williams, Raymond. Culture and Society. London: Chatto & Windus, 1958.
- 8.Abrams, M. H. A Glossary of Literary Terms. Cengage Learning, 2015